

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNI MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI  
BOLALAR BILAN SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY  
PSIXOLOGIK OMILLARI**

**Botirova Yorqinoy**

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

**Toshtemirova Mavjuda**

Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10909550>

*Annotatsiya.* Bugungi kunni tarbiyachisi ilg'or pedagog va bolalar psixologiyasini yaxshi bilishi va har bir bolani bog'cha muhitiga moslashtira olishi lozim. Bundan tashqari bolalarimizni jaxon taraqqiyoti darajasida tarbiyalashi bugungi kunni dolzarb bo'lgan talablaridan biridir. Bu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'cha muhitiga moslashishida bo'lajak tarbiyachilarni bilishi lozim bo'lgan psixologik omillar haqida .

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, ta'lim, tarbiya, shaxslararo munosabat, psixologik omil, ilgo'r pedagog, bolalar psixologiyasi, bog'cha muhiti, bo'lajak tarbiyachilar, adaptatsiya, o'yin faoliyati, predmetli o'yinlar, qoidali o'yinlar.

**SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF INTERPERSONAL RELATIONS OF  
FUTURE EDUCATORS WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE**

**Abstract.** Today's educator should be an advanced pedagogue and have a good knowledge of child psychology and be able to adapt each child to the kindergarten environment. In addition, educating our children at the level of world development is one of the urgent demands of today. This article is about the psychological factors that future teachers should know about the adaptation of preschool children to the kindergarten environment.

**Key words:** Pre-school education, education, upbringing, interpersonal relationship, psychological factor, advanced pedagogue, child psychology, kindergarten environment, future educators, adaptation, game activity, subject matter games, games with rules.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ  
ОТНОШЕНИЙ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО  
ВОЗРАСТА**

**Аннотация.** Современный воспитатель должен быть продвинутым педагогом, хорошо знать детскую психологию и уметь адаптировать каждого ребенка к среде детского сада. Кроме того, образование наших детей на уровне мирового развития является одной из насущных потребностей современности. В данной статье речь идет о

*психологических факторах, которые следует знать будущим педагогам при адаптации дошкольников к среде детского сада.*

**Ключевые слова:** *Дошкольное образование, образование, воспитание, межличностные отношения, психологический фактор, продвинутый педагог, детская психология, среда детского сада, будущие воспитатели, адаптация, игровая деятельность, предметные игры, игры с правилами.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tog'risidagi PQ-4312-sonli qaroriga muvofiq:

Maktabgacha talim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarninghar tomonlama intellektual, axloqiy, estetik , va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

Maktabgacha ta'lim tizimiga inovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kamunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi kabi jumlar keltirilgan.

Ma'lumki inson o'z hayoti davomida oladigan barcha bilimlarining 70% ni maktabgacha ta'lim yoshida egallaydi. Darhaqiqat, bu davrdagi bolalarni tatbiyalashda bo'lajak tarbiyachilardan qilinadigan asosiy talab,sog'lom muhitda, sog'lom fikirlovchi farzandlar yetishtirib chiqarishdir. Inson bolasi maktabgacha yoshida dunyoni anglay boshlaydi. O'z ota-onasi,mahallasi,vataniga mehri bilimlarni boshlang'ich poydevori quyiladi. Bolajak tarbiyachilarga mana shunday ma'suliyatli vazifa topshirilganligini his qilgan holda , zamon bilan hamnafaslikda, ilg'or texnika va bilimlarni har daqiqa o'rganib qo'llay bilishi lozim.

Bolalarning ya'ni 3 yoshdan 6 yoshgacha juda serharakat, qiziquvchan, chaqqon, o'yinqoroq bo'lishadi. Ularni uy muhitidan bog'cha muhitiga qodam qo'yganida duch keladigan birinchi psixologik muammosi bu adaptatsiya ya'ni muhitga moslashishi. Bundan tashqari begona o'rtoqlar, muomala madaniyatini rivojlantirish, estetik, etik,jismoniy jihatdan madaniyatini shakillantirilishi kabi omillardir. Bog'cha muhitiga har tomonlama mukammal adaptatsiyasi tarbiyachilarni mahoratlariga bog'liq. U birinchi navbatda ota-onalar bilan faol muloqotda bo'lmog'i lozim. Yana bolani tengdoshlari bilan do'stlashib ketishiga ko'maklashishi, jamoaviy muhitni shakillantira olishi talab etiladi.Bunday jarayonlarda bo'lajak tarbiyachilardan psixologik maxorat, kuzatuvchanlik, kreativ fikirlash, kreativ yondashuvlar talab qilinadi. Bog'cha yoshidagi bolalarni faoliyati o'yin faoliyati hisoblanadi. Shunday ekan bolalarni o'ziga jalb qilish ham ,bilim berish ham ,bog'cha muhitiga tez moshlashib olishi ham, bolalarni bir birlari bilan do'stlashib

ketishini ham o'yin faoliyatlari orqali bo'lsa qulay.

Bog'cha yoshidagi bolalarni asosiy faoliyati o'yin bo'lgani uchun quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi;

- Predmetli oyinlar;
- Jamoat syujetli-ro'lli o'yinlar;
- Individual predmetli o'yinlar;
- Individual guruhij ijodiy o'yinlar;
- Musobaqa o'yinlari;
- Muloqot o'yinlari;
- Uy mehnatiga o'rgatish.

Bog'cha yoshidagi bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlari jadal rivojlangan davr hisoblanadi. Bundan tashqari ularda nutqini bir muncha to'la o'zlashtirilmaganligi va haddan tashqari harakatchanligi tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'uladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni-qo'shnilari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga intilishadi. Shu o'rinda bo'lajak tarbiyachidan asosiy talab jamoa ruhini to'g'ri shakillantira olishi lozim. O'yin faoliyati quyidagi turlarga bo'linadi;

- 1) Predmetli o'yinlar (15-20 min davomida)
- 2) Syujetli-rolli o'yinlar (30-60 min davomida)
- 3) Qoidali o'yinlar (1soatdan 2-kungacha davom ettirish mumkin.)

Bog'chadagi o'yin faoliyati asrlar davomida juda ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Chunki bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlari bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. bir so'z bilan aytadigan bo'lsak mashhur rus pedagogi Lesgoftning fikricha "Insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki bu davrda bolalarda xarakter hislarlarining namunalari shakillanib , axloqiy harakterining asoslari yuzaga keladigan davr hisoblanadi."

Bu o'rinda shu narsa harakterliki , bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining haddi sig'adigan narsalar bilangina emas balki kattalar uchun masub bo'lgan , o'zining kuchi ham yetmaydigan , haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishiga intiladi. Demak bugungi kun tarbiyachisi ildam bo'lishi , kreativ fikirlagan holda bolaga yoshiga nisbatan qiyin bo'lgan narsalarni ham o'rgatishdan qo'rqmasligi, uni aql faoliyatiga moslagan holda osonlashtirib o'rgatib borishi lozim. O'quv faoliyatini , o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirib didaktik tarzda olib borilsa bolajonlar aql shuuriga tez qabul qilinadi. Buni shunday tushunish

kerakki, bola turli- tuman o'yinlarida faqatgina o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir doktor, o'qituvchi, oshpaz, quruvchi, militsiya, uchuvchining tashqi ko'rinishi, kiyinishi, o'zini tutishinigina idrok qilib tushuncha hosil qiladi. Bo'lajak tarbiyachilar shu o'rinda zamonaviy IT texnologiyalari yordamida ko'proq ma'lumot bilan qamrab olishlari kerak. Ularni tushunchalarini orttirib kasb egalarini mashaqqatli va sharaflil vazifalarini yoritib bera olishlari lozim boladi. O'zlashtirishi yuqori bolgan bolalar bir malumot berilganidanoq ig'ab oladilar. O'zlashtirishi pastroq bo'lgan bolalar bo'lsa tez tushunishlari qiyin. Endi bo'lajak tarbiyachidan tashabbuskorlik talab qilinadi. U ilg'or bolalarni kasb egalari ro'lga taklif qilib yana bir bor ma'lumot berib o'tishi, bolalarni bilimlarini yanada mustahkamlashlari mumkin.

### **Xulosa.**

Demak bugungi kunni tarbiyachilari yangiliklarni bolajonlarga o'rgatishdan, o'zi ham izlanishlardan tinmasligi kerak. Shu o'rinda bo'lajak tarbiyachilar Kanfutsiy aytib o'tganidek "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi". Shu o'rinda ham ilmiy nazariy bilimlarni chuqur va yaxshiroq o'zlashtiribgina qolmasdan, bugungi kunni ilg'or texnologiyalarini ham o'z o'rnida qo'llay olsa O'zbekiston yoshlari jahon bolalaridan ham ilgarilab ketadi degan umiddaman. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev takidlab o'tganlaridek bizni farzandlarimiz "Uchinchi ming yillikning yangi erosseni bo'lishlari lozim" deb aytib, kundan kunga talim sohasiga oid yangittan yangi qaror va farmonlar qabul qilinmoqdalar. Shunday ekan biz yoshlardan tirishqoqlik, izlanuvchan va yuksak darajadagi aql zakovat talab qilinadi. Shu o'rinda poydevor mustahkamlanib qurilsa bizni yoshlarimiz uzoq marralargacha yetib borishlari, dunyo bo'yicha olamshumul yangiliklarni qilishlariga men ishonaman.

### **REFERENCES**

1. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
2. Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222.
3. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: «Укитувчи», 1990.
4. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустакил фикрлаш. - Т.: «Шарк», 2000.
5. Мусурмонова, Ш. И. (2019). Инсонларнинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик таълим тарбиянинг роли. *Интернаука*, (37), 91-92.
6. Qizi, S. A. A. (2021). Content, form and means of formation of basic competences in primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1494-1497.
7. Suvankulova, A. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING PEDAGOGICAL

- SKILLS OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS USING VIRTUAL TECHNOLOGIES. Science and innovation, 3(B1), 44-47
8. Abdurazzokovna, S. A. (2023). FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS USING VIRTUAL TECHNOLOGIES. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(29), 304-309.